

TARJIMA JARAYONIDA MILLIY KOLORIT VA XUSUSIYATLARNING AKS
ETISHI

Boboyozova Nilufar

Urganch Ranch texnologiya universiteti ingliz tili fani o'qituvchisi

Tarjima murakkab va qiyinlik darajasiga ko'ra badiiy ijoda bilan bir xil o'rinda turadi. Chunki unda muallifning iste'dodi va mahorati mevasi bo'lgan asarni umuman boshqa til vositalari bilan asliga muvofiq qilib qayta yaratish kerak bo'ladi. Badiiy asarlar tarjimasida uchun til bilishning o'zi kifoya qilmaydi. Buning uchun ijodkordan iste'dod va badiiyat ilmidan xabardor bo'lish talab qilinadi. Asarning boshqa tildagi bahosi, muallifning boshqa xalq o'rtasidagi shuhrati aynan tarjimon xizmati bilan bog'liq. Tilni bilishning o'zi har doim tarjima jarayoni uchun yetarli bo'lmaydi. Tarjimaning muvaffaqiyatli va samarali bo'lishi uchun tarjimon xorijiy tillarni bilish bilan birga o'zga xalqning ijtimoiy o'zini-o'zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlar, axloqi, qadriyatlar yig'indisi va dunyoqarashi haqida chuqur bilim ega bo'lishi kerak.

Realistik tarjima talablariga ko'ra, tarjimon asl nusxani san'at asari sifatida shakl va mazmun birligini qayta yaratishi, milliy va individual xususiyatlarni saqlashi lozim. Har bir badiiy asar bir millat vakili ya'ni, yozuvchi tomonidan yoziladi va unda albatta shu millatning milliylik aks etadi. Shunga ko'ra tarjimashunoslikda milliy kolorit degan atama mavjud bo'lib, bu badiiy asarda aks etgan milliy xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Kolorit deganda tasviriy san'atda real hayotni haqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o'zaro mutanosibligi tushuniladi. Milliylik u yoki bu millatning ma'naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o'ziga xosliklardan iboratdir. Ma'naviy faoliyatga kishilarning xarakteri, tafakkur tarzi, ruhiyati, intilishlari, qiliqlari, yumor xususiyatlari va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Moddiy hayot esa urf-odat, rasm-rusm, marosimlar, kiyimlar, uy-ro'zg'or anjomlari, cholg'u asboblari, pazzandachilik, ismlar va boshqalardir. Badiiy asarlarda aks etgan ana shu milliy xususiyatlar yig'indisi adabiyotshunoslikda milliy kolorit deb ataladi. Kolorit – lotincha kolor, italyanча "kolorito" so'zidan olingan bo'lib, rang, bo'yoq, manzara ma'nosini bildiradi. Kolorit deganda tasviriy san'atda real hayotni haqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning o'zaro mutanosibligi tushuniladi. Adabiyotda esa badiiy asarning o'ziga xos xarakterli xususiyati: milliylik, davr, ma'lum joyning o'ziga xos jihatlari ifodasi ko'zda tutiladi. Kolorit biror narsaning o'ziga xos belgi va xususiyatlari majmuini bildiradi. Ma'lumki, tarixan tashkil topgan, madaniyati, tili, hududi, iqtisodiy hayoti va ruhiy xususiyatlarning umumiylik asosida vujudga kelgan kishilar guruhiga millat deyiladi. Milliylik u yoki bu millatning ma'naviy faoliyati va moddiy hayotidagi o'ziga xosliklardir. Ma'naviy faoliyat kishilarning xarakteri, tafakkur tarzi, ruhiyati hissiyotlari va boshqalarni o'z ichiga oladi. Moddiy hayot urf-odat, turli marosimlar, kishilarning

madaniyati va odatlarini o'z ichiga oladi. Badiiy asarda aks etgan ana shu milliy xususiyatlar yig'indisi adabiyotshunoslikda milliy kolorit deyiladi²⁴.

Adabiyotshunoslikda ham "mahalliy kolorit" tushunchasi mavjud bo'lib, bu tushuncha biror mahalliy sharoit, urf-odat yoki joyga xos turmush tarzi, peyzaj va til xususiyatlarini badiiy adabiyotda aks ettirishga aytiladi. Shu milliy kolorit bilan bog'liq bo'lgan so'z va atamalar- realiyalar, qisqa qilib aytganda milliy xos so'zlar deyiladi²⁵.

Realialar asar tilining ajralmas qismi bo'lib, ular yordamida yozuvchi qahramon obrazini yaratadi, xalqning milliy xususiyatlarini tasvirlab beradi.

Badiiy asarning milliy shaklini qayta tiklash - badiiy tarjimaning muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Milliy o'ziga xoslikni boshqa til vositalari bilan berish sohasida katta tajribalar to'plangan. Biroq bu sohaning prinsip va mezonlari to'la ishlab chiqilgan emas. Asosli o'rganish va tadqiqotlar izlanishlar davom etmoqda. Badiiy asarlar tarjimasida milliylikni qayta yaratish muammlari asarni boshqa bir tilda qiyoslangandagina namoyon bo'ladi. Tarjima jarayonining mohiyati asl nusxada aks etgan shakl bilan mazmunning birligini, yaxlitligini saqlash uchun bo'lak tildan muqobil vositalar qidirib topishdan iborat. Rus tilini puxta o'zlashtirgan kitobxon, tabiiyki, badiiy asarni ham aynan asl tilida mutolaa qila oladi. Agar uning sevimli asari ayni ona tiliga o'girilsa, albatta ona tilida ham mutolaa qilib chiqadi. Ikki tilda jonlangan badiiy asar o'quvchining tasavvurida yo maqtov, yoki asl nusxadagi taasurotlarni ola olmaganligidan shikoyat paydo qilishi mumkin. Shuni inobatga olib, tarjima shunchaki tajriba bo'lib qolmasligi uchun mutarjim har sohada chapdast, uddaburon bo'lmog'i, o'ziga ham tanqid ko'zi bilan qarashni bilishi kerak. Realialar so'zi lotincha "realia" so'zidan olingan bo'lib, haqiqiy degan ma'norni bildiradi. Lingvistik atamalar lug'atida unga quyidagicha ta'rif beriladi: "Borliqdagi ash-yoviy madaniyat natijasi, mumtoz grammatikada esa, muayyan mamlakatning davlat qurilishi, muayyan xalqning tarixi va madaniyatini ifodalovchi so'zlar, muayyan tilda muloqot qilish xususiyatlarini ifodalovchi lingvistik birlik" deyiladi^{26,18}. Realialarning boshqa atamalardan farqi, boshqa tillarga tarjima qilishdagi o'ziga xosliklar, ular ifodalaydigan leksik, semantik, stilistik vazifalar tilshunoslar va tarjimonlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Realialarning muayyan koloritni aks ettirish xususiyatlari to'g'risida XX asrning 50 - yillarida tilshunoslar bahs yurita boshladilar. Bu borada bir to'xtamga kelish ancha murakkab kechdi. Buning asosiy sababi, o'sha bahs yuritayotgan tadqiqotchilarning ishlarida mazkur masalaning haqiqiy mohiyati diqqat markazda bo'lgan emas. Mavjud ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida realialarga baho berish borasida ikki xil qarash borligini ko'rish mumkin. U ham bo'lsa:

- tarjima nuqtai nazaridan qarash;
- mamlakatshunoslik asnosida yondashish.

Ayrim olimlar realiyaga ta'rif berishda to'liq bo'lmagan yoki mavhum xulosalarni aytadilar. Mazkur til birliklarining faqat bir tomonigina yoritib beriladi xolos. Shu bois mazkur tushunchaga munosabat bildirishda avvalgi ta'riflarni bir ko'zdan kechirish kerak bo'ladi. Jumladan, M. L. Vaysburd realiyaga mamlakatshunoslik asnosida yondoshadi va bu

²⁴ Hamidov.X.X. Tarjimashunoslik.Toshkent davlat Sharqshunoslik instituti" Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedresi",Toshkent,2012- P.62.

²⁵ N.Sulaymonova,Sh.Sayfuddinova,Z.Ro'zimatova,L.Valiyeva,Sh.Asiljonova.Badiiy tarjimada milliy kolorit va uni saqlash jarayonidagi muammolarning tahliliy natijalari: Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), Volume 2, 2022- P.243.

²⁶ Hamidov.X.X. Tarjimashunoslik.Toshkent davlat Sharqshunoslik instituti" Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedresi",Toshkent,2012- P.63

haqida quyidagi fikrlarni aytadi: "Bu muayyan mamlakat ijtimoiy va madaniy hayoti voqealari, ijtimoiy korxonalar yoki tashkilotlarning nomlari, kundalik buyum nomlari, tarixiy shaxslar nomlari va yana boshqa ko'plab narsalar nomlaridan iborat". Ushbu fikr realiya masalasini yanada jiddiyroq o'ylab ko'rishga da'vat etadi. Rus olimasi L.N. Sobolevaning fikriga ko'ra, "realiyalar – maxsus xususiyatga ega bo'lgan, bir tilda va boshqa mamlakatlardagi tillar muhitida boshqa ekvivalentlari bo'lmagan milliy so'z va so'z birikmalaridir". Ammo bunday qarashda mamlakat hayotidagi turli o'zgarishlar, taraqqiyot bosqichlari bo'lishi hamda bir mamlakatda keng tarqalgan narsa, boshqasida unday bo'lmasligini, shuningdek, bunday xil so'zlarning tillararo bir-biriga o'tib turishi mumkinligi e'tibordan qochirilgan. Bunga misol tariqasida sobiq ittifoq davrida paydo bo'lgan "спутник" so'zini keltirish mumkin. Bu so'z aslida sobiq ittifoq davrida paydo bo'lgan. Chunki dunyo bo'yicha ilk bor aynan shu davlatda mazkur ish amalga oshirilgan. Muayyan so'zning realiya tarzida paydo bo'lishi, avvalo, o'sha realiya yaratilgan hudud, mamlakat, millat, elat bilan bog'liq bo'lishini ham nazardan qochirmaslik lozim. O'sha narsaning ma'lum ahamiyat kasb etishi bilan u boshqa mamlakatlarga, balki dunyo bo'ylab tarqalib ketishi ham mumkin. Matndagi realiyalarni geografik, etnografik, ijtimoiy-siyosiy kabi turlarga bo'lish mumkin. Geografik realiyalar transkripsiya yoki transliteratsiya yordamida tarjima qilinadi. Masalan, Washington – Washington (transliteratsiya), Miami – Mayami (transkripsiya). Etnografik realiyalar biror xalqning turmush tarsi va madaniyatiga oid tushunchalardir. Masalan, o'zbeklarda sportga doir kurash, polvon so'zlari. Inglizlarda esa o'lchov va pul birliklariga doir funt va funt sterling so'zlari bunga misol bo'la oladi. Ijtimoiy – siyosiy realiyalar transkripsiya va transliteratsiya yordamida hamda analoglar tanlash orqali ham tarjima qilinadi. Bunga misol sifatida губерния – viloyat, shtat, samurai so'zlarini keltirishimiz mumkin. Realialarning muhim xususiyati ular ifodalaydigan predmetning mohiyatidan kelib chiqadi. Muayyan xalqning turli tarixiy davrlardagi hayot tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti realialarning mohiyatiga albatta o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ana shuning uchun ham realiyalar to'g'risida gapirganda, albatta, milliy o'ziga xoslik va tarixiy kolorit masalasini chetlab o'tib bo'lmaydi. Chunki realiyalar har qanday holatlarda ham bir vaqtning o'zida milliy va tarixiy bo'yoqqa ega bo'ladilar. Bu esa ularga alohida munosabatda bo'lishlikni talab qiladi. Realialar haqida gapirganda "kolorit" tushunchasiga ham oydinlik kiritish kerak bo'ladi. Kolorit - biror narsa yoki voqea-hodisa (davr yoki hudud) ning o'ziga xos xususiyatlari majmuyidir. Shu bois u muayyan xalqqagina xoslik alomatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Bu jihat, o'z-o'zidan muayyan tarixiy davrda sodir bo'ladi. Realialarga esa davriy kolorit ham xosdir. Realialar lisoniy hodisa, lisoniy boyluk sifatida ham muayyan jamiyatning tarixiy taraqqiyotida o'ziga xos rol o'ynaydilar va jamiyatdagi o'zgarishlarga o'z ta'sirlarini ko'rsatadilar. Ular orasida realiya-neologizm, arxaizm, istorizmlarni uchratishimiz mumkin. Neologizmlar hozirgi zamonda paydo bo'lgan yangi leksik birliklardir. Istorigizmlar esa o'lgan realialardir. Realialar sirasiga yana iqtibos (sitata)larni, qanotli so'zlarni hamda aforistik xarakterga ega bo'lgan hikmatlarni, turli ko'rinishdagi murojaatlarni ham kiritish mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, realialarning eng ko'p qismi otlardan iborat bo'ladi. Ular badiiy asarning milliy koloritini ifoda qilib beradi, turli uslubiy vazifalarni bajaradi, hodisa va predmetlarning

xususiyatini haqqoniy ochib beradi. Realizmlar milliy taomlar, kiyim - kechaklar, milliy cholg'u asboblari, ro'zg'or anjomlari, nomlar, taxalluslar, shahar va qishloq sharoitlari tasviri, hayvon va o'simlik nomlari, tashkilotlar, diniy marosimlar va boshqa shunga xos bo'lgan etnografik belgilarni bildiruvchi so'z va iboralardir. Badiiy obrazni qayta yaratishda tarjimon ishining birinchi bosqichi obraz yaratilgan millatning tarixi, ijtimoiy - adabiy sharoitlarini o'rganishdir. Undan keyingi bosqichi uning mazmunini belgilashdir. Shundan keyin obraz yaratilishi kerak bo'lgan aslyat tilining vositalarini va uslubiy yo'llarini tahlil qilishi hamda oxiri ona tilida ifodalashning kerakli til vositalarini qidirib topishir bo'ladi. Adabiy asarning umumiy sifatlari o'sha yerliklarning xususiy- ijtimoiy hayot tarzida, sharoitda, kiyimi, urf - odatlari, ko'chalar-u shahari va boshqalarida namoyon bo'ladi. Bularning yig'indisi asarning milliy xususiyatini tashkil etib, barchasi haqiqiy asarda nutq vositalari orqali berilgan bo'ladi. Ularning to'g'ri tarjima qilinishi juda muhimdir.

Milliylik juda nozik tushuncha bo'lib, butun millat haqida tasavvur paydo qilishga yordam beradi. Har bir xalqning o'ziga xos turmush tarzi va madaniyati shu xalqning ko'rki sanaladi. Tarjimashunoslar fikricha, milliy xos so'zlar tarjimasida eng qiyini u yoki bu tushuncha, narsa va hodisalarning haqida o'quvchi ongida to'liq va aniq tasavvur hosil qilishdir. Aytaylik, Sharq she'riyatini bahor, ko'klam, gul, bulbul, bo'ston obrazlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Masalan, Mirtemirning :

Ko'zim ko'zingga tushdi,

Chaqmoq chaqqanday bo'ldi

misralarini to'g'ridan to'g'ri tarjima qilish kutilgan natija bermasligi mumkin. Ranglarning ham milliylikda o'z o'rnini bor²⁷. Masalan, oq - musaffolik ramzi deya ko'p millatlarda qabul qilingan bo'lsa, Yaponiya, Hindiston, Xitoyda azadorlik belgisi hisoblanadi. Yashilni Amerikaliklar xavfsizlik belgisi sifatida tan olsa, Fransiyada bu rang jinoyatchilik belgisi sanaladi.

Umuman olganda, tarjima jarayonida milliy kolorit va xususiyatlarning saqlanishi muhim jihatlardan hisoblanadi, bu esa tarjimondan yuksak mahorat talab etadi.

²⁷ N.Sulaymonova, Sh.Sayfuddinova, Z.Ro'zimatova, L.Valiyeva, Sh.Asiljonova. Badiiy tarjimada milliy kolorit va uni saqlash jarayonidagi muammolarning tahliliy natijalari: Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), Volume 2, 2022- P.244